

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK:658.562:6II9.85(575.1)**

**UMAROVA NILUFAR ABDUKAXOR QIZI**

**OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI  
RAQOBATBARDOSHLIGINING IQTISODIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(Sutni qayta ishlash korxonolari misolida )**

*08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti*

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan  
**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.  
**G.R.Madraximova**

**Toshkent – 2025**

## MUNDARIJA

|   |            |
|---|------------|
| <b>KIRISH.....</b>  | <b>3</b>   |
| <b>I BOB. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy-uslubiy asoslari.....</b>                           | <b>14</b>  |
| 1.1.Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari.....                                    | 14         |
| 1.2.Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda iqtisodiy tizimlarning nazariy asoslari va iqtisodiy ahamiyati..... | 27         |
| 1.3.Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha ilg‘or mamlakatlarning tajribalari.....                      | 36         |
| I bob bo‘yicha xulosalar.....   | 55         |
| <b>II BOB. Sutni qayta ishlash korxonalarini hozirgi holatining tahlili.....</b>  | <b>57</b>  |
| 2.1.Sutni qayta ishlash korxonalarini faoliyatining iqtisodiy holati va tahlili...  | 57         |
| 2.2.Sutni qayta ishlash korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga ta‘sir etuvchi omillarni baholash tizimi.....                      | 72         |
| 2.3.Sutni qayta ishlash korxonalarida asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining tahlili.....  | 88         |
| II bob bo‘yicha xulosalar.....  | 101        |
| <b>III BOB. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlari.....</b>                            | <b>103</b> |
| 3.1.Oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlari.....                       | 103        |
| 3.2.Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi.....                                    | 114        |
| 3.3.Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning istiqbollari.....   | 130        |
| III bob bo‘yicha xulosalar.....   | 143        |
| <b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>   | <b>146</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>  | <b>147</b> |

## **KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni ko‘paytirish, aholi ehtiyojini qondirish, mahsulotlar sifatini takomillashtirish hamda ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi raqobatbardoshlikni takomillashtirishga qaratilgan yangi yo‘nalishlar amaliyotga keng tatbiq etib kelinmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning ma‘lumotlariga ko‘ra, “So‘nggi ikki yil ichida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining o‘sishi global oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq xavotirlarni kuchaytirdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy iste‘moli bo‘lgan kaloriyalarda global oziq-ovqat iste‘moli keyingi 10 yil ichida yiliga 1,3% ga o‘sishi prognoz qilinmoqda”<sup>1</sup>. Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi yildan-yilga ortib borayotganligi soha korxonalarining raqobatbardoshligi oshirish hamda mahsulot hajmini oshirishning yangi innovatsion yo‘nalishlarini yanada rivojlantirishga zaruratni oshirmoqda.

Jahonda oziq-ovqat sanoatini raqobatbardoshligini oshirishning yangi innovatsion yo‘nalishlarini amaliyotga tatbiq etishning metodologik-uslubiy asoslarini innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda. Bu borada oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini innovatsion texnologiyalar asosida yanada kengaytirish, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik muhitga ishlab chiqarish jarayonlari ba mahsulotlar moslashtirish, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshligini oshirishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan yo‘nalishdagi tadqiqotlarda alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati, jumladan sut va pishloq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish borasida ishlab chiqarishni innovatsion va raqamli texnologiyalar bilan jihozlash, kadrlarni KPI darajasini oshirish, qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish

---

<sup>1</sup> [www.agri-outlook.org](http://www.agri-outlook.org). OECD-FAO Agricultural Outlook 2023-2032

tizimini takomillashtirish kabi yoʻnalishlarda yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari nafaqat ichki bozorni balki jahon bozorini ham toʻldirib kelmoqda. 2023-yil holatiga koʻra, 23 mln tonna poliz mahsulotlari va meva-sabzavot yetishtirildi, qayta ishlash orqali esa 86 trln soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 1,7 mlrd dollardan oshdi. 2024-yil uchun oziq-ovqat sanoatida 100 trln soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish reja qilingan boʻlib, oxirgi 5 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yillik oʻsishi oʻrtacha 18 foizni tashkil etmoqda. 2024-yilda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlar importi 670,6 mln dollarni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 20 foizga yoki 169,1 mln dollarga kamaydi. Bunda, aralash oʻsimliklar yogʻi importi 4,2 mln dollarga, bugʻdoy 74140,5 mln dollarga, kungaboqar urugʻi 8 mln dollarga, shakar xomashyosi 53,9 mln dollarga, guruch 1,9 mln dollarga, margarin 8,6 mln dollarga, makaron 2,5 mln dollarga, kungaboqar yogʻi 20,8 mln dollarga qisqargan. 2024-yil holatiga koʻra, ishlab chiqarish sanoati tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 14,1 foizni, jismoniy hajm indeksi 104,6 foizni, umumiy ishlab chiqarish hajmi esa 74 933,3 milliard soʻmni tashkil etdi. 2024-yilda Oʻzbekiston 1 milliard dollarlik 1,4 million tonna meva-sabzavot eksport qildi. Oʻzbekiston Statistika agentligi maʼlumotlariga koʻra, bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 foizga oshgan va ushbu koʻrsatkich 2023-yilda 1,3 million tonna boʻlgan. Hozirgi kunda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti Oʻzbekiston umumiy eksportining 5,3 foizini tashkil etadi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini eksport qilish bilan 2362 ta korxonada shugʻullanadi, bu esa barcha eksport qiluvchilarning 32 foizini (7210 ta) tashkil etadi. Oʻtgan yili Oʻzbekiston Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Kolumbiya, Indoneziya kabi 10 dan ortiq yangi bozorlarga chiqdi va mahsulot eksport qilinadigan mamlakatlar soni 85 taga yetdi. 2024-yilda eng koʻp sotilgan mahsulotlar piyoz (44,1 million dollar), karam (41,2 million dollar) va mosh (26,8 million dollar) boʻldi. Ommabop meva va sabzavotlar orasida quritilgan uzum (21 million dollar), sabzi (19,8 million dollar), pomidor (19,2 million dollar), tariq (17,2 million dollar), quritilgan oʻrik